

PIRLS TALABLARI ASOSIDA O‘QUVCHILARNING NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Xamrayeva Guzal Xuroz qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrasida assistenti

Annotatsiya

Mazkur maqolada PIRLS (*Progress in International Reading Literacy Study*) xalqaro baholash dasturi talablari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda PIRLS tadqiqotining mohiyati, baholash konsepsiyasi, matn turlari va o‘qish jarayonlari (*axborotni topish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xulosa chiqarish, talqin va integratsiya qilish, baholash*) yoritiladi, shuningdek bu jarayonlarning nutq madaniyati tarkibiy qismlari — *to‘g‘rilik, aniqlik, izchillik, ifodalilik va mulohaza etikasi* — bilan o‘zaro bog‘liqligi ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, PIRLS reytingida yuqori natijalarga ega bo‘lgan Finlandiya, Rossiya va Singapur ta‘lim tizimlaridagi tajriba o‘rganilib, ulardan O‘zbekiston boshlang‘ich ta‘limi uchun foydali xulosalar chiqariladi. Tadqiqot natijalari PIRLS yondashuvi asosida tashkil etilgan o‘qish savodxonligi mashg‘ulotlarining o‘quvchilarda nutq madaniyati, kommunikativ kompetensiya va tanqidiy fikrlashni izchil rivojlantirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *PIRLS, o‘qish savodxonligi, nutq madaniyati, kommunikativ kompetensiya, boshlang‘ich ta‘lim, matn bilan ishlash, og‘zaki nutq, yozma nutq, xalqaro baholash, ta‘lim sifati, tanqidiy fikrlash, lug‘at boyligi.*

Kirish. Bugungi kunda ta‘lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini, mustaqil fikrlashini va nutq madaniyatini rivojlantirishdan iborat. Zamonaviy jamiyatda shaxsning muvaffaqiyati nafaqat bilimlar hajmi, balki o‘z fikrini ravon, mantiqiy va madaniyatli tarzda ifodalay olish qobiliyati bilan ham belgilanadi. Shu sababli boshlang‘ich ta‘lim bosqichidanoq o‘quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish masalasi pedagogik tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston ta‘lim tizimida xalqaro baholash dasturlariga, xususan PIRLS tadqiqotiga qo‘shilish va uning natijalarini milliy ta‘lim amaliyotiga tatbiq etish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

PIRLS (*Progress in International Reading Literacy Study*) — IEA (*International Association for the Evaluation of Educational Achievement*) tashkiloti tomonidan har besh yilda o‘tkaziladigan xalqaro tadqiqot bo‘lib, boshlang‘ich sinf (4-sinf) o‘quvchilarining

matnni o‘qish va tushunish darajasini baholashga qaratilgan [6; 7]. Unda o‘quvchilarning axborotni topish, matnni talqin qilish, xulosalar chiqarish va baholash kabi ko‘nikmalari aniqlanadi. Mazkur ko‘nikmalar bevosita nutq madaniyati bilan bog‘liqdir, chunki matn mazmunini anglagan o‘quvchi uni qayta hikoya qila olishi, o‘z munosabatini bildira olishi, dalillar asosida fikr yuritishi va muloqot jarayonida erkin ishtirok etishi zarur.

PIRLS tadqiqotining nazariy-konseptual asoslari I.V.S.Mullis va M.O.Martin tomonidan ishlab chiqilgan baholash freymvorklarida batafsil yoritilgan, unda o‘qish savodxonligi ikki asosiy maqsad — adabiy tajriba olish va axborotni qo‘lga kiritish hamda foydalanish nuqtai nazaridan tavsiflanadi [6; 7]. O‘zbek tilshunoslari va metodistlaridan N.Mahmudov nutq madaniyati va uslubiyat masalalarini, uning til normalari, mantiqiylik va ifodalilik kabi mezonlar bilan bog‘liqligini ilmiy asoslab bergan [4]. J.G‘. Yo‘ldoshev va S.A. Usmonov boshlang‘ich ta’limda matn bilan ishlash metodikasining didaktik asoslarini ishlab chiqishgan [3]. Sh.Q.Sariyev o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish metodikasini tadqiq qilgan [5]. Shunga qaramay, PIRLS talablarining O‘zbekiston boshlang‘ich ta’limida nutq madaniyatini rivojlantirish vositasi sifatida kompleks tadqiq etilishi hozircha yetarli emas, bu esa mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

PIRLS tadqiqoti o‘quvchilarning matn bilan ishlash jarayonida bir qator muhim o‘qish ko‘nikmalarini baholaydi. Ushbu ko‘nikmalar matnda aniq berilgan ma’lumotlarni topish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xulosalar chiqarish, g‘oya va axborotlarni talqin qilish hamda integratsiya qilish, shuningdek, matn mazmuni, tili va tuzilishini tahlil qilish va baholashni o‘z ichiga oladi. Mazkur ko‘nikmalar o‘quvchidan faqat matnni o‘qib tushunishni emas, balki o‘qilgan ma’lumotlar asosida fikr yuritish, xulosa chiqarish va o‘z munosabatini asosli tarzda ifodalashni ham talab qiladi. Shuning uchun PIRLS topshiriqlari o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi bilan bir qatorda ularning nutq madaniyati darajasini ham namoyon etuvchi muhim vosita hisoblanadi. O‘quvchi matn mazmunini tushunib, undagi g‘oyalarni sharhlashi, voqealar va qahramonlarga baho berishi hamda o‘z fikrini og‘zaki yoki yozma shaklda izchil bayon qilishi orqali nutqiy kompetensiyasini namoyon etadi.

Nutq madaniyati esa shaxsning til vositalaridan maqsadga muvofiq, aniq, ravon va ta’sirchan foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. U o‘quvchining muloqot jarayonida fikrini to‘g‘ri, tushunarli va mantiqiy tarzda ifodalashiga xizmat qiluvchi muhim sifatlar majmuasidir. Nutq madaniyatining asosiy tarkibiy qismlariga adabiy til me’yorlariga rioya qilishni ifodalovchi to‘g‘rilik, fikrni tushunarli va bir ma’noli bayon etishni ta’minlovchi aniqlik, fikrlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni aks ettiruvchi izchillik, nutqning ta’sirchanligi va boyligini belgilovchi ifodalilik hamda suhbatdoshga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, uning fikrini tinglash va muloqot qoidalariga amal qilishni nazarda tutuvchi muloqot etikasi kiradi. Aynan shu sifatlar o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini

shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. PIRLS talablari asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida o‘quvchilar matnni tahlil qilish, savollarga asosli javob berish, o‘z fikrini erkin ifodalash va boshqalar bilan samarali muloqot qilish orqali nutq madaniyatining barcha tarkibiy qismlarini bosqichma-bosqich egallab boradilar. Natijada ularda nafaqat o‘qish savodxonligi, balki og‘zaki va yozma nutqni madaniyatli tarzda qo‘llash ko‘nikmalari ham rivojlanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirish uchun o‘qish savodxonligi darslarida matn ustida tizimli ishlash muhim ahamiyatga ega. PIRLS matnlari ikki asosiy turga bo‘linadi: badiiy (adabiy) matnlar va axborot xarakteridagi (publitsistik, ilmiy-ommabop) matnlar [6]. Bunday matnlar o‘quvchilarni nafaqat o‘qishga, balki o‘qilgan matn mazmuni yuzasidan fikr bildirishga, voqealarni tahlil qilishga va qahramonlarning xatti-harakatlarini baholashga undaydi. Bunday faoliyat o‘quvchilarning lug‘at boyligini kengaytiradi, nutqining izchilligi va mantiqiylikini oshiradi, hamda fikrni asosli bayon qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. PIRLS topshiriqlarining muhim jihatlaridan biri o‘quvchini tayyor javobni eslab qolishga emas, balki mustaqil fikrlashga yo‘naltirishidir: o‘quvchi matndan kerakli ma’lumotni topishi, uni tahlil qilishi, taqqoslashi va o‘z xulosasini ifodalashi talab etiladi.

PIRLS talablari asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Bunda o‘quvchilar matnni o‘z so‘zlari bilan qayta hikoya qilish, o‘qilgan material yuzasidan ochiq savollarga javob berish, o‘z fikr va mulohazalarini asoslash, asar qahramonlarining xatti-harakatlariga baho berish kabi faoliyatlarga jalb etiladi. Shuningdek, matn mazmuni asosida tashkil etilgan rolli o‘yinlar va dramatisatsiya mashg‘ulotlari o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirib, ularning fikrni erkin va ravon ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning lug‘at boyligini kengaytirish, nutqining izchilligi va mantiqiylikini ta’minlash hamda muloqot jarayonida faol ishtirok etishiga yordam beradi.

Guruhli ishlash va matn yuzasidan munozaralar tashkil etish esa o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. O‘zaro fikr almashish jarayonida o‘quvchilar boshqalarning nuqtai nazarini tinglash, o‘z fikrini dalillar asosida himoya qilish va muloqot madaniyati qoidalariga amal qilishni o‘rganadilar. Bu esa ularda nafaqat nutqiy faollikni, balki hamkorlikda ishlash, muammolarni birgalikda hal etish va ijtimoiy munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Natijada PIRLS talablari asosida olib borilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi bilan bir qatorda ularning og‘zaki nutqi, muloqot madaniyati va kommunikativ kompetensiyalarini ham samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

PIRLS tadqiqotida kengaytirilgan javob talab qiluvchi topshiriqlar alohida o‘rin egallaydi. Bunday topshiriqlar o‘quvchilardan nafaqat matn mazmunini tushunishni, balki o‘z fikrlarini yozma shaklda izchil, mantiqiy va asoslangan tarzda bayon etishni ham talab qiladi. Shu jihatdan ular o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. O‘quvchilar matn asosida berilgan savollarga to‘liq va kengaytirilgan javob yozish, voqealar hamda qahramonlarning xatti-harakatlariga o‘z munosabatini bildirish, muallif g‘oyasini o‘z so‘zlari bilan sharhlash va uni dalillar bilan asoslash jarayonida yozma nutq ko‘nikmalarini takomillashtiradilar. Bundan tashqari, matn tuzilishiga mos ravishda boshlanish, asosiy qism va yakundan iborat kichik hikoyalar, esse yoki xatlar yozish orqali o‘quvchilar fikrlarini tartibli va izchil ifodalashga o‘rganadilar. Bunday faoliyatlar natijasida o‘quvchilarning yozma nutqida aniqlik, mantiqiylik va ifodalilik sifatleri shakllanadi, lug‘at boyligi kengayadi hamda fikrni yozma shaklda mustaqil bayon etish malakasi rivojlanadi. Shuningdek, kengaytirilgan javobli topshiriqlar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rag‘batlantirib, ularni matn mazmunini chuqurroq tahlil qilishga, voqealarga baho berishga va o‘z nuqtai nazarini asoslashga undaydi. Natijada PIRLS talablari asosida tashkil etilgan yozma topshiriqlar o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi bilan bir qatorda yozma nutq madaniyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

PIRLS yondashuvi asosida olib borilgan ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi ham rivojlanadi. Matndagi voqealarni tahlil qilish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash va qahramonlarning harakatlarini baholash o‘quvchilarda mantiqiy mushohada yuritish ko‘nikmasini shakllantiradi. Bu esa nutqning mazmunan boy, dalillarga asoslangan va ta‘sirchan bo‘lishiga yordam beradi. Natijada o‘quvchi nafaqat matnni tushunadi, balki o‘z fikrini madaniyatli tarzda ifodalashga ham erishadi.

PIRLS xalqaro tadqiqoti natijalariga ko‘ra, Finlandiya, Rossiya Federatsiyasi va Singapur kabi davlatlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga ega [7]. Finlandiya ta‘lim tizimida o‘qish darslari ko‘pincha matn muhokamasi va o‘quvchilarning shaxsiy talqinlarini erkin ifodalashiga asoslangan bo‘lib, bu yondashuv nutqning izchilligi va ifodaliligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Rossiya boshlang‘ich maktablarida matn bilan ishlashda “tushuntirib o‘qish” va matn yuzasidan rejalashtirilgan savol-javob mashg‘ulotlari keng qo‘llaniladi, bu o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqini muvozanatli rivojlantiradi. Singapur ta‘lim tizimida esa o‘qish savodxonligi darslari til o‘qitish bilan integratsiyalashgan holda olib boriladi, bunda lug‘at boyitish, gap tuzish va matn yaratish mashqlari muntazam tarzda amalga oshiriladi.

Bu tajribalarning umumiy jihati shundaki, o‘qish savodxonligi va nutq madaniyati alohida-alohida emas, balki uzviy bog‘liq holda rivojlantiriladi. O‘zbekiston boshlang‘ich ta‘lim

amaliyotida ham PIRLS talablariga moslashtirilgan matnlar va topshiriqlarni ona tili va o‘qish savodxonligi darslariga tizimli tatbiq etish katta salohiyatga ega.

Xulosa. PIRLS xalqaro baholash dasturi talablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish uchun keng pedagogik imkoniyatlarni taqdim etadi. Matn bilan ishlash, o‘qilgan materialni tahlil qilish, fikr bildirish va muloqotga kirishish jarayonlari o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini takomillashtiradi. Shuningdek, PIRLS yondashuvi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, dalillash va muloqot madaniyatini shakllantirish orqali ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishmuhamedov R.X., Ziyomhammadov B. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish: o‘quv-uslubiy qo‘llanma. — Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2011. — 116 b.
2. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. — Toshkent: Fan, 2006. — 162 b.
3. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 2004. — 84 b.
4. Mahmudov N. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 2007. — 176 b.
5. Sariyev Sh.Q. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish metodikasi. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2013. — 138 b.
6. Mullis I.V.S., Martin M.O. PIRLS 2021 Assessment Framework. — Boston: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2019. — 60 p.
7. Mullis I.V.S., Martin M.O., Foy P., Hooper M. PIRLS 2016 International Results in Reading. — Boston: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2017. — 552 p.
8. Mullis I.V.S., Martin M.O. (eds.) Methods and Procedures: PIRLS 2021 Technical Report. — Boston: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2023. — 410 p.
9. Snow C.E. Reading for Understanding: Toward an R&D Program in Reading Comprehension. — Santa Monica, CA: RAND Corporation, 2002. — 132 p.
10. Alexander R.J. Towards Dialogic Teaching: Rethinking Classroom Talk. — 5th ed. — York: Dialogos, 2017. — 220 p.

11. Graham S., Perin D. Writing Next: Effective Strategies to Improve Writing of Adolescents in Middle and High Schools. — Washington, DC: Alliance for Excellent Education, 2007. — 64 p.

12. Facione P.A. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. — Millbrae, CA: Measured Reasoning LLC, 2011. — 28 p.

13. O‘zbekiston Respublikasi Davlat test markazi. PIRLS xalqaro tadqiqoti: milliy hisobot. — Toshkent, 2022.